

Isajon Sulton

ABU RAYHON BERUNIY

tarixiy-biografik roman



Toshkent - 2022



SAKKIZINCHI QISMI DAVOMI



SEYISTON YURISHI

Uch yuz to‘qson uchinchi yilning muharram oyida¹ sulton Mahmud Seyistonga qarab yo‘lga chiqdi.

Kandahor va Zobuliston yo‘lidan yurildi. Ikki oydan ortiq davom etgan safar qo‘shinni xiyla charchatgan edi, Zobuliston yalangida lashkarga ikki kun dam berilgach, yana cho‘lni kesib, nihoyat, Seyistonga yetib kelindi.

Seyiston amirining ismi Halaf ibn Ahmad edi. Zobulistonliklar Mahmud G‘aznaviy kelayotgan xabarini unga yetkazishgan ekan. Halaf ibn Ahmad yalangda urushishdan qochib, qal‘aga kirib yashirinib oldi. Shunda Mahmud G‘aznaviy qo‘shinga yoyilishni buyurdi. Seyiston amirining sarosimaga tushgan inavkarlar ruhini ko‘tarib yubordi. Ahyon-ahyonda qal‘a devorlarida paydo bo‘lgan qo‘riqchilarga hazil- mutoyiba qilib gap tashlashardi, qal‘adagilar esa aytarli javob qaytarishmasdi. Qo‘shin shu tarz turar ekan, sulton Mahmud qal‘aga chopar yuborib, bo‘ysunishni talab qildi. Halaf ibn Ahmad shu o‘rinda a‘yonlarining turli-tuman maqtov so‘zlariga uchib, “Bizning oltioyga yetadigan suv va ozuqa zahiramiz bor, istehkom devorlari o‘ta mustahkam, baribir qal‘ani ololmaysiz” degan mazmunda balandparvoz javob berdi.

Ertasi kuni saharlab sulton Mahmud qal‘a devorini fillar bilan buzishni buyurdi. Sulton filbonlar uchun temir ayvoncha yasattirgan edi, shu ayvonchalar qo‘l keldi. Yuqoridagilar o‘q uzsa ham, qaynoq suv va yog‘ quysalar ham, tosh uloqtirsalar ham foydasi bo‘lmadi. Qal‘a devori buzila boshlagach, buni ko‘rgan

¹ 1002-yilning noyabr oyi.



Halaf qo'rquvga tushdi va shafqat tilab odam chiqardi. U qal'aning barcha xazinalari kalitini amirga topshirdi. Sulton Mahmud uning sovg'alarini qabul qilib, yaxshi so'zlar bilan siylab:

– O'zingga o'zing huki chiqar, seni qaerga jo'natishimni xohlaysan? – deb so'radi.

Xalaf:

– G'uzg'ononga, – deb javob berdi. Chunki uning o'g'li Miroq o'sha yerda edi. Sulton uni bir qancha a'yonlariva harami bilan aytgan joyiga jo'natgach, Seyistonga ishonchli kishilardan birini voliy vilib tayinladi.

Shundan so'ng uch yuz to'qson to'rtinchi yil¹ keldi.

BXATIYA FATHI

Uch yuz to'qson to'rtinchi yilda sulton Mahmud “Har yili Hindga fath yurishi qilaman”, degan so'ziga muvofiq, Bxatiyaga qarab yo'l oldi. Valishtandan o'tib, Bxatiyaga yetib bordi. U yerda uch kun jang qildi. Bxatiya rojasi Bajir qo'shinni amir bilan urushga yo'llab, o'zi Sind daryosi qirg'oqlariga qochib ketdi. Amir bundan xabar topib, bir qancha otliq bo'luklarni uning izidan yubordi.

Sind sohilining Bajir qochgan qismi qalin changalzorlar ekan. Uning qaysi sohilda ekani noma'lumedi. Shu sababli, izquvarlar “Har holda, ichkariroqqa qochgan bo'lsa kerak, agar topa olmasak, daryoning bu sohilini qaytishimizda taftish qilarmiz”, deb, uzundan-uzun chirmovuqlar va bir-biriga kirishib ketgan changallar orasidan o'ta-o'ta, uni izlab boraverishdi. Ora-sira qamish va loydan tiklangan, kirish joyiga nomigagina latta-putta osib qo'yilgan uylardan iborat qishloqlar uchrardi. Bu kishilar sira qarshilik ko'rsatishmas, aksincha, qo'shinga hayron bo'lib qarashardi. Bajir o'shanday qishloqlardan birida yashirilib yotgan ekan. Buni bir manzilda odatdagidan ko'ra ko'proq tutun chiqayotganidan payqab qolib, zudlikda o'sha yerga kirib borildi.

Turkiy bo'luklarning shiddatini ko'rgan Bajir askarlari o'sha

¹ 1003-yil.



zahoti taslim bo'lishdi. Bajir esa bo'luklar oldiga bir o'zi nimalardir deya baqira-baqira chiqib keldi. So'ng qilichini yerga dasta tomoni bilan tiqib, unga o'zini tashlab, halok bo'ldi.

Sulton kishilari buni ko'rib, hayron bo'lib qolishdi. Bu shariatga ham, urush qonun-qoidalariga ham to'g'ri kelmasdi. Navkar yengilishi, asir tushishi mumkin, agar aybi bo'lsa, jazolanadi, aybi bo'lmasa qo'yib yuboriladiyoki to'lov evaziga ozod qilinadi. O'zini o'ldirishi esa hech ko'rilmagan holat edi.

Bajirning qolgan kishilari asir olingach, jangovarbo'luk ortiga qaytdi. Bu orada sulton Mahmud qo'shini Bajir lashkarini tormor qilib ulgurgan edi. Bujangda rojaning xazinasi va ikki yuz saksonta fili amir ixtiyoriga o'tdi.

Sulton Mahmud Bxatiyadan qaytar ekan, Jaypalning o'g'li Anandapal ularning yo'lini to'sib qo'ydi. Jang qilishdan boshqa iloj qolmagach, qo'shin Anandapal ustiga shunday shiddat bilan oqdiki, u Kashmir tog'lariga qochib ketishga majbur bo'ldi.

Sulton Mahmud G'azniga qaytayotganida, Seyistonahli isyon ko'targani haqida xabar keldi. Sulton yo'lni o'zgartirib, Seyistonga qarab yurdi.

Xuroson qo'shini Seyistonga yetib borganida, uning haybatini ko'rgan isyonchilar qal'aga kirib berkinib olishdi. Ular sulton qoshiga muzokara olib borish uchun kishi chiqarishdi, biroq, sulton ularning so'zini tinglamadi. Bir kundayoq qal'ani oldi, isyonchilarboshlig'ini hibsga uloqtirdi. Seyistonliklar itoat qilishlarini bildirib, elchi jo'natishdi. Amirmarhamat ko'rsatib, ularning itoatini yana qabul qildiva G'azniga qaytib keldi.

Shundan so'ng uch yuz to'qson beshinchi yil¹ keldi.

MO'LTON FATHI

Shu yili sulton Mahmud G'aznaviy shimoliy Mo'ltonga yurishni o'yladi. Chunki u yerning shahzodasi Fo'ta hiylagar va firibgar, axloqi buzuq kishi bo'lib, Mo'ltan aholisidan o'zining g'ayriinsoniy istaklarini bajarishlarini talab qilar, zulmi haddan oshgan edi.

Bahor musavviri tog'u toshlar va tekisliklarda jo'shqinlik

¹ 1004-yil.

suratlarini chizganida hamda quyosh yer yuzini qimmatbaho libos bezaklari bilan bezaganida, qo'shin Mo'ltonga qarab yurdi. Daryo irmoqlarini toshirgan yomg'irlar kechuv yerlarini o'tib bo'lmas qilib qo'ygani uchun, sulton Mahmud Jaypal mamlakatihududidan o'tishini aytdi. Lekin Jaypalning o'g'li Anandapal bunga qarshilik ko'rsatib, lashkari bilan qo'shin yo'lini to'sib chiqdi. Shunda sulton g'azablanib, har ikki mamlakatni ham fath etishga qaror qildi.

Ular qasabadan-qasabaga, qishloqdan-qishloqqa o'tib, talonchilik va bosqinchilik falokatini yog'dirdilar vabu ish to qaysar qirol yana Kashmirga qochguniga qadar davom etdi.

Sulton Mahmud Fo'ta turgan manzilga yetib borgach, qal'ani yetti kun qamalda tutib turdi. Nihoyat, qal'adagilar tashqariga elchilarini chiqarishdi va har qanday shartga ko'nishlarini aytishdi. Mo'lton voliysi sultonga har biriga yigirma ming dirham solingan mingta sandiq miqdorida yillik o'lpon to'lashga rozi bo'ldi.

Fo'ta esa, o'zi uchun baland tog' va o'tib bo'lmas himoya deb bilgan Anandapalning qay ahvolga tushganini bilgach, xazinalarini to'plab, Mo'ltondan Sarandib tog'lariga qochib ketdi.

Shundan so'ng ikki yil aytarli tinch o'tdi va uch yuz to'qson sakkizinchi yil¹ keldi.

ILIKXONNING XUROSONGA HUJUMI

Shu yili Movarounnahr hukmdori Ilikxon Xurosongahujum qildi.

U sulton Mahmud G'aznaviy Mo'ltonda ekanidan foydalanib, o'z lashkarboshisi Suboshiteginni ko'p sonli qo'shin bilan Xurosonga yubordi. Sulton Mahmud turklar daryodan o'tib, Xurosonga kirganini eshitgach, chaqmoq shiddati va qahru g'azab shamoliday bo'lib, Mo'ltondan G'azniga yetib keldi. Bu vaqtda Suboshitegin

¹ 1007-yil.

Hirotni egallab, xazinani talon-taroj qilgan va otliq askarlarini Nishopurga yuborgan edi. Turklar shaharga kirib oʻrnashib ulgurmasidan, sulton Mahmud Hindistondan qaytib, Balxga qarab yurdi. Turk xonining odamlari oʻz xoniga qoʻshilish uchun oshiqishdi, ammo sulton Mahmudning lashkarboshisi Arslon Jozib yoʻlni toʻsib qoʻydi. Turklar Marvrud, Saraxs va Bovard tomon yurishdi, Arslon Jozib ularning ortidan quvib borib, birin-ketin mahv qildi. Sulton Mahmud unga yordam berish uchun Amir Oltintoshni joʻnatdi. Turklar hiyla ishlatmoqchi boʻlib, ikkiga boʻlinishdi, bir qismi Jayhunni suzib oʻtish uchun yoʻl oldi. Sulton Mahmud fillarga katta dovullar ostirib, ularni qattiq chalib yurishni buyurdi. Bu gulduros shovqin-suronni eshitgan turklar qoʻrquvdan suvga sakrab halok boʻlishdi.

Suboshitegin toʻlib-toshib oqayotgan Jayhunni kecha olmay, yoʻlini Marvga burdi. Maqsadi – choʻldan oʻtish edi. Biroq yoz jaziramasida quduqlar va yoʻllarniqum bosgan edi, shu sababli, u Saraxs tomon yoʻl oldi. Saraxsda uning oʻgʻuz beklaridan Muhsin Oʻgʻuz isyonkoʻtardi. Shu tariqa, u sulton yuborgan qoʻshinga qarshi chiqish u yoqda tursin, oʻlpon toʻlab jonini qutqarishga imkon topolmay, Niso shahriga yoʻnaldi. Hirotda talab olgan behisob boyliklari uning yurishigaxalal berardi. U tirik qolish uchun har ishni qilib koʻrdi. Nishopurga borayotganida Gilon kishilari unga hujum qilishdi. Suboshiteginning baʼzi kishilari Shamsulmaoliy soyasiga qochishdi. Suboshitegin yana daydishga tushdi va Damiston orqali Niso shahriga yetibkelib, xazinaning qolgan-qutganini Xorazm shohiga saqlash uchun topshirdi. Odamlarini shu yerda qoldirib, oʻzi dasht orqali Marvga joʻnadi.

Shoir aytgani kabi:

“Chaqmoq chaqnaganida quygan jaladan qochib, oʻzini daryoga tashlagan kishi kabi boʻldi”.

Sulton Mahmud bu vaqtda Tusga yetib kelgan edi. Suboshitegin dashtga qochganini bilib, uning ortidan Abdulloh Toiyini yubordi.

Abdulloh Toiy kishilari dasht o'rtasida, suv va yeguliklari tugagan yetti yuz kishini asirga oldilar. Suboshitegin bir qancha kishi bilan jonini qutqarib, nihoyat, Jayhunni suzib o'tdi. Ilikxon sultonni chalg'itib, Saboshiteginni qutqarib qolish uchun yana bir lashkarboshisi Ja'farteginni olti ming otliq bilan Balxga yuborgan edi. Sulton bu hiylaga parvo ham qilmadi, o'z amirlaridan birini Xurosonga yo'lladi, ular Ja'farteginni quvib yuborishdi.

Suboshitegin Ilikxon qoshiga yetib kelganida, u Suboshiteginni qattiq koyidi. Suboshitegin esa, "Sulton Mahmudning fillari, qurollari va askarlariga hech kim dosh bera olmaydi" dedi.

Ilikxon bunga toqat qilolmay, Chin podshohi Qodirxondan ko'mak o'tindi. Qodirxon kechiktirmay qo'shin yubordi, unga Movarounnahr cherigi ham qo'shib, qirq ming otliq bo'ldi. She'rdan aytilgani kabi: *"Bu shunday daryo ediki, to'lqinlari qirg'oqni buzardi"*.

Bu mahalda sulton Mahmud Toharistonda edi. U turk, xalaj, hind va afg'on qabilalaridan iborat ko'p sonli qo'shin tuzdi. Balxdan to'rt farsah masofada, Qatar degancho'lda ikki qo'shin uchrashdi. Shoir ayganiday: *"Sharq va G'arbning beshdan bir qismi ular bilan to'ldi. Ularning shovqini Yettiog'ayni yulduzigacha yetib bordi. Ular bir-birlarini tilmochsiz tushuna olmadilar"*.

Bunday deyilishining sababi shuki, sulton Mahmud bir-birining tilini tushuna oladigan bo'luklarni yonma-yon joylashtirmasdi. Misol uchun, hind qo'shini yoniga xalaj qo'shinini, afg'on qo'shini yoniga turk bo'lugini tizardi.

Mahmud G'aznaviy qo'shin qalbini Amir Nasrga, o'ng qanotni Amir Oltintoshga va so'l qanotni Amir Arslon Jozibga topshirdi. Qalbni besh yuz fil bilan

quvvatlantirdi. Ilikxon esa o'ngga Qodirxon boshliq Chin qo'shinini, so'lga Ja'farteginni joylashtirib, o'zi qalbni egalladi.

Ayni shu mahalda Jaypalning o'g'li Anandapaldansulton Mahmudga bir maktub keldi.

“Eshitishimcha, turklar senga qarshi chiqqan va Xurosonga tarqalgan emishlar. Agar xohlasang, besh ming otliq, o'n ming piyoda askar va yuzta fil bilan yordamga boraman. Yana xohlasang, aytganlarimga ikki hissa kuch qo'shib, o'g'limni ham chiqaraman. Mening shunday qilishimdan senda hech qanday andisha tug'ilmasin, chunkimen sening tarafingdan sindirilganman, endilikda o'zimdan boshqaning senga g'olib bo'lishini istamayman”.

Sulton Mahmud bu maktubni o'qib, xursand bo'ldi va dedi:

– Albatta, keyingi safarimizda bu Anandapalni munosib taqdirlaymiz. Er kishining mardligi mana shunday bo'ladi.

Shunday qilib, jang boshlandi. Atrofni qo'sshinayqiriqlari va zarba jaranglari tutdi. O'langlar qilichlar chaqmog'idan chiqqan olovda lovullab yondi, chang-to'zon va suron falakkacha ko'tarildi. Ilikxon va uning yonidagi besh yuz chog'li turk dastasi shunday mahorat bilan jang qildiki, amir qo'shinining ilg'orini yorib kirishdi. Urush dengizida bo'ron ko'tarildi, yer esa zilzila vaqtidagi kabi titradi. Sulton buni ko'rib, kichik bir tepa ustiga chiqdi-da, ikki rakaat namoz o'qidi, so'ng o'zining jangovar filiga minib, Ilikxon turgan markazga hamla qildi. Uning fili Ilikxonning bayroqdorini tutib, havoga otib yubordi, bir qancha askarlarni yanchib tashladi. Buni ko'rgan Amir navkarlarining ruhi ko'tarilib, o'z nayzalarini dushmanga qarata shitob otishdi. Ilikxon qo'shini ortga chekindi va tarqoq holda qocha boshladi. Sulton Mahmud ularni Movarounnahrga quvib yubordi,

Xurosonda ularning izi ham qolmadi. Mana bu she'rshuni bildiradi:

“Ey, Tangri dinining qilichi! Sening qiliching hamxulqing kabi to'g'ridir, unga dushman bas kelolmaydi”.

Dushmanga aylangan do'stni yana do'stga aylantirishning chorasi bo'lmadi.

Shundan so'ng uch yuz to'qson to'qqizinchi yil¹ keldi.

NAVASTAH SHOH USTIGA YURISH

Mahmud G'aznaviy shu yili Navastah shoh ustigayurdi. U Hindiston hukmdorlaridan birining o'g'li bo'lib, islom diniga kirganidan so'ng, fath etilgan viloyatlarni sulton unga topshirgan edi. Biroq, sulton Mahmud Xurosonga qaytishi bilan u egnidan islom libosini yechib, imonsizlik ridosini va murtadlik kafanini kiyib oldi. Navastah shoh bu gal ham sulton hamlasiga dosh berolmadi va yengilgan holda Rajastontomonga qochishga majbur bo'ldi.

Ilikxon va Navastah shoh ustidan qozonilgan bu g'alabalar sulton Mahmudni falak qo'llab- quvvatlaganining dalolatidir.

BAXIN QAL'ASINING FATHI

Rabiul-oxir oyida qo'shin yana qo'zg'olib, Vamunddaryosi sohiligacha yurdi, u yerda qarshisiga Vabal degan roja chiqdi. Tong lochini ufq inidan uchib chiqqanida, urush olovi yana gurillab yondi, chopilgan inson tanasi bo'laklari yerni to'ldirdi. Avvaliga dushman qo'li balandkela boshladi. Biroq, islom haqiqati ustun kelib, sulton qo'shini shunday hamla qildiki, yovning oyoqlari yerga botib ketdi. Sulton ularni qora tepaliklar vachuqur jarliklar tomon qochgan joylarida quvib yetdi. Bir qancha yov kishisi o'sha jarliklarga qulab, halok bo'ldi.

Shundan so'ng u Baxin qal'asiga yetib keldi. Ushbu

¹ 1008-yil.



qal'a suv o'rtasida bo'lib, devorlari mustahkam va baland, dinsizlar uni o'zlarining ulug' butlari uchun qurgan ekanlar. Olam-jahon qimmatbaho buyumlar va boyliklar najot niyatida, sanamlariga yaqinlashish uchun shu qal'aga to'plangan ekan. Qudratli sulton bu qal'ani qattiq siquvga oldi. Qal'adagilar uning urush olovini yoquvchi qo'shini qudratini ko'rgach, qo'rquv va vahimaga tushib qolishdi. Sulton ularning bo'yniga fath arqonini tashladi, qal'adagilar esa itoatsuvlig'ini tishlashdi. Darvozalar ochilganida sultonga bo'ysunib, o'zlarini yerga otishdi. Bu yerdagi xazinadaming qopdan ziyod oltin tanga, yetti yuz ming man¹ tilla va kumush quymalari bor ekan. Ipak, mato, turli buyum va idishlarning son-sanog'i yo'q edi. Yana, uzunligi oltmish va eni ellik tirsak keladigan kattakon kumush uy ham bor ekan, u shunday ekanki, arqonlarini tortib yoki bo'shatib, uni osongina qismlarga bo'lish, buklash, kengaytirish yoki toraytirish mumkin bo'lib, uy ichiga ikkita oltin va ikkita kumush but o'rnatilgan ekan.

Oltin va kumush butlar sindirib, eritildi. Kumush uyni esa sulton G'azniga olib borishlarini buyurdi. Bu qal'ani ishonchli beklaridan ikki kishiga topshirib, o'zi G'azniga qaytib ketdi.

NARDINGA YURISH

Shu yili sulton Mahmud Hind yeriga yana yurishqildi va o'ttizta filni qo'lga kiritgach, Bximanagar qal'asiga qarab yurdi. Qal'a qamali uch kunga cho'zildi. Qal'a taslim bo'lgach, u Bxima pandav zamonasidan beri to'planayotgan barcha xazinalarni qo'lga kiritdi. Shuncha ko'p boylik tushdiki, o'lchashning imkoni bo'lmadi. G'azniga qaytgach, Bximaning oltin va kumush taxtini saroy kiraverishiga o'rnatishni va barcha boyliklarni yerga to'kishni buyurdi.

Tevarak-atrofdagi xalq saroyga to'planib kelar va

¹ 1 man – 816 gramm.



hovlida tog'-tog' bo'lib uyilib yotgan boyliklarni ko'rib, hayrat barmog'ini tishlab qolar edilar. Bu xazina ochiqda ikki haftagacha shunday turdi. So'ng samoga bulutchiqib, sharros jala quydi. G'ulomlar va xos qo'riqchilar ust-boshi shalabbo bo'lib, u boyliklarni xazinaga tashishdi. Aytishlariga qaraganda, uni ikki kunda ham tashib tugata olmadilar.

* * *

Yoz o'tgach, Mahmud G'aznaviy Nardinga yurish boshladi. Nardin shohi sulton qo'shinini ko'rgach va u haqda eshitganlarini mulohaza qilgach, o'zining obro'li kishilarini yuborib, itoat izhor qildi. Oltmishta fildan tashqari, har yil to'lanadigan o'lponni bo'yniga oldi. Shuningdek, ikki ming xuroson kishisini saroyidatutib turishi, agar zarurat tug'lsa, sulton tarafidaturib jang qilishi kerak edi. Hind shohi bu talabniqabul qildi. Shu tariqa Xuroson va Hind eli uchun yangi karvon yo'li ochildi.

Shundan so'ng sulton G'urga qarab yurdi.

G'UR FATHI

G'uriylarning imonsizligi va itoatsizligi, ovloqda poylab turib, karvonlar va sayyohlarni talashi anchadan buyon bu ishni tartibga solib, adolat o'rnatishni talab qilardi. Sulton buning uchun o'z qo'shinini G'urviloyatiga olib keldi va Hojib Oltintoshni qo'mondon qilib tayinladi. Biroq ular G'ur tog'larining ilonizi yo'llarida va jarliklari orasida qiyin ahvolga tushibqolishdi

Shunda Mahmud G'aznaviyning o'zi yordamga keldi va u yaramaslarni qadam-baqadam quvib, G'urning eng ovloq joyigacha yetib bordi. G'urlar sardorining ismi Suriy edi. Sulton u in qurgan qal'aga yetib borganida, o'n mingqo'shin bilan qarshi chiqdi. Suriy qal'a atrofidagi handaqlarga va o'tish qiyin tog' yo'llariga ishongan edi.



Bir qancha navkarlarini tog' ustiga ham joylashtirdi. Shunda sulton Mahmud qo'shinga chekinish buyrug'ini berdi. Qo'shin pasttekislikka qarab tusha boshlaganida, g'uriylar g'alaba qozondik deb o'ylab, qo'shin ortidan quvishdi va tuzoqqa tushib qolishdi. Chekinish chog'ida Hojib Oltintosh sara bo'luklari bilan o'ng tarafdagi dara ichiga yashiringan edi. Bo'luklar o'sha yashiringan joyidan chiqib kelib, shiddatli hamlaga o'tishdi. Tez fursatda g'uriylar yengilib, qocha boshlashdi. Sulton Mahmud Suriyning o'g'lini asir qilib oldi. O'g'il esa, o'zotasining barcha xazinasini qo'ldan chiqqanini va saroy a'yonlari haydab olib ketilayotganini ko'rgach, uzuk ko'zidagi zaharni ichib, o'z joniga qasd qildi.

Shundan so'ng to'rt yuzinchi yil¹ keldi.

¹ 1009-yil.